

TALABALARDA MUSTAQILLIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Obidova Iroda

Andijon davlat Pedagogika institute Pedagogika va psixologiya 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7438618>

Annotatsiya. Maqola o‘quvchi-talabalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiruvchi, mustaqil fikrlashga undovchi interfaol ta’lim metodlari hamda ta’lim jarayonidagi bixevoiristik, kognitiv yondashuvlar orqali ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkurni shakllantirishning o‘ziga xos jihatlari tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalash jarayoni va uning psixologik mexanizmlari, komponentlari, yaratilayotgan yangi avlod darsliklarining mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalashdagi o‘rni masalalari qamrab olingan.

Kalit so‘zlar: ta’lim-tarbiya, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur, shaxs, shaxsni tarbiyalash, ijodkor shaxs, ta’lim psixologiyasi

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. Статья посвящена социально-психологическим факторам формирования самостоятельного мышления и творчества у учащихся, в нее входят интерактивные методы обучения, активизирующие активность учащихся и стимулирующие самостоятельное мышление, а также поведенческий и когнитивные подходы в образовательном процессе. Анализируются уникальные аспекты формирования самостоятельного и творческого мышления учащихся. Также в статье освещается процесс воспитания самостоятельного мышления и его психологические механизмы и роль учебников нового поколения в воспитании самостоятельного мышления и творческой личности.

Ключевые слова: образование, самостоятельное мышление, творческое мышление, личность, личностное воспитание, творческая личность, педагогическая психология.

IMPROVING THE PROCESSES OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF INDEPENDENT THINKING IN STUDENTS

Abstract. The article is devoted to the socio-psychological factors of the formation of independent thinking and creativity among students, it includes interactive teaching methods that activate the activity of students and stimulate independent thinking, as well as behavioral and cognitive approaches in the educational process. The unique aspects of the formation of independent and creative thinking of students are analyzed. The article also highlights the process of educating independent thinking and its psychological mechanisms and the role of new generation textbooks in educating independent thinking and a creative personality.

Keywords: education, independent thinking, creative thinking, personality, personal education, creative personality, pedagogical psychology.

KIRISH

Bugungi kunda oldimizga qo‘ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, xayotimizning taraqqiyoti va istiqboli, amalga

oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimiz samarasi, taqdiri, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli, mustaqil fikrlovchi, ijodkor mutaxassis kadrlarni tayyorlash muammosi bilan bog‘liq. Mustaqil fikrlovchi shaxslar esa jamiyatda uni o‘rab turgan ijtimoiy madaniy muhit ta’sirida jamiyatning ta’lim-tarbiyasi asosida shakllanadi va rivojlanadi. [1, -B. 5477-5489].

Demak, sog‘lom, iymon-e’tiqodli, aqlan teran, ahloqan pok, o‘z hak-huquqlari, burch va mas’uliyatlarini chukur anglaydigan yoshlarni voyaga yetkazish jamiyatini asosini tashkil etadi. [2, -B. 420-423].

Yosh avlodni yetuk barkamol shaxs qilib shakllantirishda esa pedagogik-psixologik bilimlarning o‘rnini beqiyosdir.

Ma’lumki, mustaqil fikrlovchi, aqlan yetuk, ruhan tetik, ma’nan barkamol shaxsni shakllantirish g‘oyasi insoniyatning paydo bo‘lishi davridan boshlangan bo‘lib, u shu davrlar oralig‘ida bosqichma-bosqich rivojlanib kelmoqda. Mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalash bilan bog‘liq ibtidoiy tushunchalar bugungi kunda ham qadimiy reliktlar tarzida talqin etilmoqda.

Mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalash masalasi tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, islomgacha bo‘lgan qadimiy reliktlarning mazmuni insonni ruhan va jismonan yovuz ruhlardan xalos etish, saqlash, ularda yaxshilikning doimo g‘alabasiga ishonch hissini shakllantirish, qalb pokligi, jism sog‘lomligiga da’vat etuvchi dastlabki tassavvurlardan iborat bo‘lgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Manbalardan ma’lum bo‘lishicha, islomgacha bo‘lgan xalqlarning sog‘lom ma’naviy va intellektual hayot uchun xarakterli bo‘lgan xususiyatlari tabiat va jamiyat hodisalariga munosabatda animistik (har narsaning joni, ruhi bor degan e’tiqod), magiya (sehrigarlik, jonsiz narsalarga g‘ayritabiyy qudratga ega deb sajda qilish), totemizm (hayvonlar, o‘simplik, narsalarga sig‘inishning yetakchiligi), majusiylikning rasm-rusumlari va marosimlaridan tarbiya jarayonida aralash foydalanish, qadimiy axloqiy-ma’naviy tasavvurlar zamirida tayanch nuqta hisoblangan ishonch va tarbiyada muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ruhiy jarayon, ezgu fikr, ezgu kalom, ezgu amalning yovuz fikr, yovuz kalom, yovuz amal ustidan g‘alabasi uchun kurash g‘oyasining yetakchiligi, axloqiy-ma’naviy tafakkurni tarbiyalashda asosiy usul ko‘rgazmalilik, ishontirish, namuna, tan jazosi hisoblangan. Ta’lim-tarbiya vositasi esa g‘ayritabiyy kuchga ega deb tasavvur qilingan narsa va hodisalardan iborat bo‘lgan [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga psixologik tayyorlash, yoshlarni destruktiv ta’sirlardan himoyalash, odob-axloq qoidalariiga rioya qilish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. [4, -B. 124-125].

Jahonning rivojlangan davlatlari tajribasiga ko‘ra, talabalarda mustaqillik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha yirik loyihalarni amaliyatga tatbiq etishga doir tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. [5, -B. 415-419].

Talabalarda mustaqillik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish pedagogika fanining ustuvor vazifalaridan biridir. [6, -B. 597-605].

Chunki, ta’limda mustaqil fikrlovchi shaxslarni shakllantirishning muhimligi ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish [7, -B. 2278-3075] bilan birga voqelikka nisbatan munosabatini o‘z nuqtai nazaridan baxolashga o‘rgatishdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda ta'lim jarayonida mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalashda pedagogik psixologiyaning oldida turgan quyidagi dolzarb muammolarni belgilash mumkin [8,-B.-112]:

- ta'lim maskanlarida o'quvchi-talabalarni o'qitish, shaxs sifatida shakllantirish (ijtimoiylashuv) jarayonini hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan metodlar (uslublar, shakllar), vositalar, usullarni yangi mazmun bilan boyitish, monologik o'qitish tizimidan dialogik, innovatsion (yangilikka asoslangan), hamkorlik (o'qituvchi bilan talabalar faoliyatini uyg'unlashtirish) singari ta'limning yangi turlariga o'tish;
- mutaxassislar tayyorlash bo'yicha o'quv rejasi, dasturi va ularga asoslanib chop qilinadigan darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ishlanmalar, ma'ruza matnlarini qaytadan ko'rib chiqish, ularni mamlakatimiz hududlari xususiyatlarini hisobga olgan holda takomillashtirish, yanada puxtalashtirish, mutaxassislikka bevosita aloqasi bo'lмаган o'quv fanlarini (materiallarini) oqilona qisqartirish va ta'limda inson omilini hisobga olish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi-talabalarda fikrlashni shakllantirish, ularni ijodiy izlanishga o'rgatish, tanqidiy tafakkurni tarkib toptirishga erishish;
- ta'limni faol uslublar negizida qurish lozim, toki bunda o'qituvchi bilan talaba hamkorligi ustuvor o'rinni egallasin. Test, bahs, ishbilarmonlik o'yinlari, murakkablashtirilgan pedagogik muammo, evristika, trening, psixodrama, boshqotirma, fikrlar jangi kabi faol, mustaqillikka yetaklovchi o'qitish metodlari va shakllari ta'limning negiziga aylanishini ta'minlash.

Ta'kidlash joizki, mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalash bo'yicha bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimidagi o'rni kelganda, ayrim an'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiruvchi, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undovchi interfaol ta'lim metodlari bilan boyitish maqsadga muvofiqdir [9, -B.44]

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda ta'lim jarayonida mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalashning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin [10, -B. 67].

- «ta'limni industrlashtirish», ya'ni kompyuterlashtirish va texnologiyalashtirish asosida hozirgi zamon jamiyatining aqliy faoliyatini kuchaytirish;
- ta'limning hozirgi vaqtgacha ustunlik qilgan axborot beruvchilik shakllaridan faol o'qitish metodlari va shakllariga o'tish. Bu yo'nalish «xotira maktabi»dan «tushunish maktabi», «tafakkur maktabi»ga o'tishdan iborat;
- ta'lim oluvchi va pedagog o'rtasidagi o'zaro hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish, ya'ni ta'lim oluvchilarni birgalikdagi jamoa faolligi sifatidagi ishtirokini ta'minlash. Bunda asosiy urg'u o'qituvchining bilim berish faoliyatidan talabaning bilim olish faoliyatiga o'tkaziladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqorida ta'kidlangan fikrlar bizning ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy va hayotiy kuzatuvarlариз asosida shakllangan qarashlardir. Ammo, nazارимизда bu kabi fundamental masalalar ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda va ijodkor shaxsni tarbiyalashda o'ziga xos o'rinn tutadi.

REFERENCES

1. Buvabaevna K. Y. Issues of Civil Literacy Development in the Education System //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 5477-5489.
2. Kadirova Y. LOVING THE COUNTRY IS FAITHFUL //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B4. – C. 420-423.
3. Karimova V.M. Auditoriyada bahs-munozarali darslarni tashkil etishning psixologik texnologiyasi. – T.: «Universitet», 2010.
4. Buvabaevna K. Y. THE IMPORTANCE OF VALUES IN ENHANCING CIVIL LITERACY IN STUDENTS //Archive of Conferences. – 2021. – T. 25. – №. 1. – C. 124-125.
5. Kadirova K. RAISING THE LEGAL AWARENESS AND LEGAL CULTURE OF CITIZENS IN SOCIETY //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B4. – C. 415-419.
6. Bekmurodov M., Akhmedova F., Kadirova K. Study the process of harmonization formation of personal and professional qualities at students //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – T. 24. – №. S1. – C. 597-605.
7. Kadirova H., Akhmedova F. Sociological Analysis of the Nation's Identity, the Levels of Feeling the National Identity in Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN. – C. 2278-3075.
8. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboeva R.N. Mustaqil fikrlash. / – T.: «Sharq», 2010. – 112-b.
9. Matyushkin A.M. Fikrlash psixologiyasining ayrim muammolari. "Fikrlash psixologiyasi". / Ingliz va nemis tillaridan tarjimalar to'plami, ed. A.M. Matyushkina. - M.: "Ma'rifat", 2015 yil.
10. Muxammadjonov A. 19—20-asr boshlaridagi o'zbek xalqining maktabi va pedagogik tafakkuri. - T.: "Muxlis", 2018. -b. 44.
11. Raxmanova N.R., Umarov B.M. Universitetning o'quv va kognitiv faoliyatining psixologik asoslari. - T.: G'afur G'ulom nomidagi XTPD, 2018. -b. 67
12. STUDENTS KADIROVA YAKITJAN BUVABAEVNA: LEGAL BASIS OF FORMATION OF CIVIC CULTURE IN STUDENTS KADIROVA YAKITJAN BUVABAEVNA //Journal of Information Computational Science. – 2021. – №. 1.
13. Кадирова Х. Б. Научное наследие мыслителей центральной Азии //Вестник магистратуры. – 2015. – №. 2-2 (41). – С. 16-20.
14. Raximbabayeva Nigora Abdurasulovna. AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SHAXS VA OILA, ULARNING O'ZIGA XOSLIGI //Journal of Information Computational Science. – 2022. – №. 7.
15. Кадирова Х. Б. Главная духовная ценность и личность человека //Фэн-наука. – 2015. – №. 1. – С. 29-32.
16. Kadirova Khalima Buvabaevna //Science and innovation. – 2022. – T. 7. – №. B7. – Pp. 1363-1367.
17. Кадирова Х. Б. Идентичность: воспитание гармонично-развитого человека в семье //Новый университет. Серия: Актуальные проблемы гуманитарных и общественных наук. – 2016. – №. 11-12. – С. 59-60